

«MAKTABGACHA TA'LIM KLASERLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: XORIJ TAJRIBASI»

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

22.11.2023 yil

Kasimov Asror Abdulloyevich. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DARS DAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	59
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi. BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINING YORITILISHI.....	63
Nasimova Nasiba Qurbon qizi. MAK TABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARD A TAYANCH KOMPETENSIYALARINING SHAKLLANISHI VA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	66
Jumayeva Habiba G'aforovna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI	67
Ergasheva Nilufar Erkin qizi. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PSIXOLOG KASBIY FAOLIYATINING ILMIY -NAZARIY METODOLOGIK MUAMMOLARI	71
Jo'rayeva Zarina Muxtorovna. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI YOZUVGA O'RGA TISHNING METODIK ASOSLARI	73
3 – SEKTOR: MAK TABGACHA TA'LIM KONSEPSIYASIDA XALQARO VA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISHDA KREATIV YONDASHUV	
Nigmatova Mavjudha Maxmudovna, Qurbonova Dilnoza Sadreddinovna, Sayfullayeva Mohinur Mustafoyevna. YEVROPA MAMLAKATLARIDA MAK TABGACHA TA'LIM VA UNING AHAMIYATI.....	77
Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna. TALABALAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ART-PEDAGOGIKANING AHAMIYATI	80
Umedjon To'raqulovich Jumayev. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARINING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODLARI.....	83
Rajabova Iroda Hamidovna, Nuriddinova Sevara, Bahri ddinova Gulnora. ATROF – OLAM BILAN TANISHTIRISH MASHG'ULOTLARIDA MAK TABGACHA YOSH DAGI BOLALARDA OILAGA NISBATAN MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH.....	85
Eshova Dilbar Shonazarovna. TASVIRIY FAOLIYAT- BADIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ASOSI	87
Oygul To'raeva. MAK TABGACHA TALIMDA BOLALARNI TADBIR KORLIK FAOLIYATIGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	90
Barotova Dilnoza O'tkir qizi. MAK TABGACHA TA'LIM YO'NALISHIDAGI BOLALARINING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	94
Ergasheva Gulzoda Baxtiyorovna, Yo'ldoshev Muhabbat Mahmanazarovna. MAK TABGACHA TA'LIM YOSH DAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	96
Fayzullayeva Nozima Nutfillo qizi. MAK TABGACHA YOSH DAGI BOLALARGA HUQUQIY TARBIYA BERISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	98
Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna, Hamroyeva Lobar Olimjonovna. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O'YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO'LLARI	102
Komilova Dilnoza Akram qizi. MAK TABGACHA YOSH DAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUV	105
Yunusova Dilfuza Norboyevna. MAK TABGACHA TA'LIM YOSH DAGI BOALAR DA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANIRISHNING AHAMIYATI.....	107
Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna, Ahrorova Aziza Anvar qizi. MAK TABGACHA TA'LIM YOSH DAGI BOLALARINING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	109
Musayeva Shoxsanam. MAK TABGACHA YOSH DAGI BOLALARGA ESTETIK TARBIYA BERISHDA MUSIQANING O'RNI	112
Камилова Гулмира Алимовна. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КРЕАТИВ ЁНДАШУВ.....	114

MAKTABGACHA TALIMDA BOLALARINI TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Oygul To'raeva
BuxDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada mtt bolalarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishning psixologik xususiyatlari, uning o'ziga xosligi, bolalarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda mttdagi psixologik muhit va an'analarning o'rni, bunda psixologik tarbiya, tadbirkorlik madaniyati, shaxsnинг tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashga qо'yilgan talablar haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik faoliyati, psixologik muhit, psixologik tarbiya, tadbirkorlik madaniyati, xalqaro tajribalar, kasbiy kompetensiya, konsepsiya.

Аннотация: В статье описаны психологические особенности направленности детей к предпринимательству в ДО, ее своеобразие, роль психологической среды и традиций в семье в подготовке детей к предпринимательству, психологическое воспитание, предпринимательская культура, требования к подготовке человека к предпринимательству.

Ключевые слова: предпринимательская деятельность, психологическая среда, психологическое образование, предпринимательская культура, международный опыт, профессиональная компетентность, концепция.

Abstract The article describes the psychological features of directing children to entrepreneurship in the kindergarten, its uniqueness, the role of psychological environment and traditions in the kindergarten in preparing children for entrepreneurship, psychological education, entrepreneurial culture, and the requirements for preparing a person for entrepreneurship. done

Keywords: entrepreneurial activity, psychological environment, psychological education, entrepreneurial culture, international experiences, professional competence, concept.

Inson hayoti davomida umr so'qmoqlaridan goh qoqinib, goho ildam qadamlar bilan odimlaydi. Hayotiy tajribasi ana shu so'qmoqlarda pishib yetiladi. Chor-atrofga, tegrasidagi voqelikka yanada teranroq, aql ko'zi bilan razm soladi, mukammallik sari intiladi. Ana shu mukammallik maktabgacha talim dargohidaoilash tashkil etadi. MTT qo'rg'oni mustahkam bo'lishi uchun tarbiyachilarining o'zi ma'naviy yetuk, aqlan boy, ahloqiy tarbiyalangan bo'lishi kerak.

Ajdodlar merosi va milliy qadriyatlari mazmunida davr sinovidan o'tgan pand-nasihatlar, o'gitlar o'z navbatida bolalarda tadbirkorlik faoliyatining ma'naviy-ahloqiy negizi bo'lgan halollik, rostgo'ylik, o'zaro hurmat, mehnatga muhabbat, hunar egallahsga bo'lgan ishtiyoq, inson mehnatini qadrlash, ishlab chiqarish faoliyati va mehnatga ma'suliyatli munosabatda bo'lish, tashabbuskorlik, uddaburonlik, oqillik kabi sifatlarning o'zlashtirishiga yaqindan yordam beradi. Shuningdek, o'tmisht allomalarimizning mehnat tarbiyasiga doir qarashlari, ta'limotlari esa bolalarda hunarni ulug'lash, halol mehnat qilish, tadbirkorlik va ishbilarmonlik yo'li bilan halol boylik orttirish, tejamkor bo'lish, maqsadli ish yuritish hamda ustoz-shogird an'analariga sodiq bo'lish sifatlarining shakllanishiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Kelajak avlodni to'g'riso'z, hayoli, insofli, mehr-oqibatlari va vatanparvar, barcha insoniy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishida o'zbek oilalarining ta'siri kuchlidir.

Ma'lumki, pedagoglar, ota-onalar bolalar odob-ahloqi, madaniyati, ularni har jihatdan yetuk insonlar bo'lishi uchun jamiyat oldida javobgardirlar. Bu borada e'tiborsizlik, o'z mas'uliyatini his etmaslik esa ijtimoiy burchni anglamaslikka kiradi. Hozirgi kunda jamiyatda shunday ota-onalar ham yo'q emas. O'z farzandlarini mehribonlik uylariga tashlab, ularni qanday kamol topayotganligini, kelajagi haqida o'ylamaydi ham.

Bizning oilalarda asosan farzand tarbiyasi bilan onalarimiz shug'ullanishadi. Aksariyat hollarda o'g'il bola tarbiyasi bilan ota, qizlar tarbiyasi bilan ko'proq onalarimiz shug'ullanadilar. Ota o'z o'g'liga oilada yigit kishining o'rni, mahalla, Vatan va halq oldidagi mas'uliyati, vatanparvarlik va fidoyilik kabi fazilatlarni singdirib boradi.

MTT xodimlari tomonidan bolalarga tarbiyaviy ta'sir qo'llanilganda ularning mustaqilliklari, faolliklari, tashabbuslari, o'z-o'zlarini boshqara olishlarini hisobga olish lozim. Shundagina bola mas'uliyatdan bosh tortmaydi, ularda oiladaga hamjihat mehnatga muhabbat, burch hissi, o'zaro yordamlashishga intilish, birdamlik, zarur vaziyatlarda bo'ysunish kabi sifatlar shakllanadi. Bola uchun katta kishilarning xatti-harakatlari, xususan, ota-onalarining shaxsiy namunalari muhim ahamiyatga ega va uning o'rinni boshqa omillar egallay olmaydi. Zero, oilada tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish orqali ota-onalar bolalarni nafaqat so'zları, balki xatti-harakatlari yordamida ham tarbiyalaydilar. Natijada bolalarda faoliyatning muayyan turi negizida ma'lum qobshshyatlar tarkib topa boshlaydi. Ota-onalarning vazifasi ana shu qobiliyatlarni o'stirish, faollik bilan tarkib toptirish uchun qulay shart-sharoit yaratib berishdan iboratdir. MTTda bolalarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda quyidagalarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

1. Bola qibiliyatini oldindan baholash. Bolaning muayyan faoliyat turini qay darajada o'zlashtira olishini ota-onalarni oldindan aniqlashi zarur.
2. Bola mehnatini uning kuchiga yarasha taqsimlash. Me'yordan ortiq talab uning toliqishi, o'ziga nisbatan ishonchszilik hissining ortishi, ishdan bo'yin tov lashiga olib keladi.

3. Iste'dodni rag'batlantirish, bolaning xatti-harakatiga ota-onanining munosabati - mayl va qiziqishlarini munosib baholash, ularga dalda berish, rag'batlantirish bolalarda muayyan faoliyatga qiziqishni ortgiradi.

4. Tadabchanlik, tarbiyachi bolaning muayyan harakatni bajarshpi davomida ishni sinchkovlik bilan puxta, vijdonan bajarishi, asbob-uskunalar, mexnat qurollariga ehtiyyotkor, xom ashyoga nisbatan tejamkor bo'lishni talab etishi lozim.

MTTda tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonida bolalarning:

- 1) hayotiy muammolarni mustaqil yecha olish;
- 2) muayyan sharoit yoki muddatda moslashish;
- 3) maqsadli ish olib borish;

4) mavjud shart-sharoitlardan samarali foydalana olish imkoniyatlariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Zero, bu kabi imkoniyatlarga egalik bolalarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va rag'batnikuchaytiradi. Shu sababli ularni tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini chuqur anglash, tadbirkorlikka oid yangaliklardan muntazam xabardor bo'lib borish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish va uni to'g'ri tashkil etishga o'rgatib borish talab etiladi.

Oilada bolalarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda quyidagi omillarga e'tiborni qaratish pedagogik jihatdan to'g'ri hisoblanadi:

1) oilada qanday psixologik muhit va an'analar mavjudligi hamda ularning bolalarga ta'sirini aniqlash;

2) bolalar tomonidan tadbirkorlik madaniyati hamda tadbirkor shaxsga xos sifatlar to'g'risidagi bilimlarniig o'zlashtirilish darajasini tahlil qilish;

3) bolalar ongiga tadbirkorlik faoliyatining asosi - kathiyatlilik va adolatli bo'lish ekanligi to'g'risidagi tushunchani singdirish.

Bugungi kunda tadbirkor shaxsi, uning ijtimoiy qiyofasini o'rganishga qiziqish ortmoqda. Tadbirkorlik faoliyati, uning o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq o'rganib, yangi avlod tadbirkorlarining shakllanishiga yordam berish harakati tezlashmokda. Bunga: tadbirkorlikni iktisodiy-ijtimoiy hayotdagi ahamiyatining ortib borishi; tadbirkorlikning ommaviy tus olishi; xalq iste'moli mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi; tadbirkorliqda inson imkoniyatidan foydalanish darajasining yuqoriligi; matbuot, umuman ommaviy axborot vositalarning tadbirkorlar farliyatini yoritshpga bo'lgan intilishining kuchayishida namoyon bo'lmoqda.

Onajonlarimiz esa qizlarga birinchi navbatda o'zbeklarga xos bo'lgan odob-ahloq, hayo-ibo, ozodalik, mehmon kutish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish kabi tarbiya sirlaridan o'rgatib boradilar. Oilada o'sgan bolalar mana shu ruhda tarbiyalandi deylik. Mehribonlik uylarida

mana shu tarbiya berilarmikan? U yerdagi yigitlardan ko‘ra qizlarning odob-ahloqi bizni tashvishga soladi. Yuqoridagi tarbiya sirlari kim tomonidan yetkaziladi. O‘zbek qizlaridagi odob-ahloq, ibo-hayo necha odamlarni hayratga solmagan deysiz. Ispaniyalik bir olim butun umrini chet el xalqlarining urf-odatlari, madaniyati, kelib chiqish tarixini o‘rganishga bag‘ishlagan ekan. Ana o‘sha olim O‘zbekistonga ham kelibdi. U mamlakatimizni o‘rganish jarayonida bir xonadonda mehmon bo‘libdi. Mehmondorchilik paytida shu xonadonda voyaga yetayotgan 15 yoshli qiz choy uzatibdi. Olim o‘z yurtiga qaytar ekan, shunday debdi: "Shu paytgacha dunyo kezdim, lekin shuncha kezganlarim orasida oddiy bir o‘zbek qizini ko‘lini ko‘ksiga qo‘yib, hayo bilan choy uzatishidek chiroyli manzarani hech qaerda ko‘rmadim".

Demak, millatning shakllanishi va rivojlanishi, uni dunyoga tanilishi ham oilada boshlanadi. Milliy qadriyatlar ham oilada singdiriladi. Ota-onaning vazifasi farzandlarni bir-biriga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdir.

Muomala odobida nigoh, ya‘ni insoniy qarash muhim rol o‘ynaydi. "Ma'lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo‘l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so‘zga aylanmagan hissiyoti, talablari o‘z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo‘l siltab ketish-muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba’zan qarab qo‘yishning o‘zi so‘zdan ham kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi".

MTT tarbiyasida insonlarga chiroyli va ma’noli, beg‘araz insonlarga qarashni shakllantirish va rivojlantirishga, har qanday muammo, kayfiyat yomon bo‘lishiga qaramasdan boshqalarga o‘qrayib, yomon qaramaslikka o‘rgatishga katta ahamiyat berish zarur. Muomala odobini quyidagi: er va xotin, ota-onva farzandlar, erkaklar, ayollar, yoshlari, qariyalar, kasbdoshlarning muomala odoblari kabi turlarga bo‘lish mumkin. Muomala odobining bu turlari har bir odamning burch va vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshadi.

MTT farzand tarbiya oluvchi dastlabki makon ekanligi, farzand umri asosiy qismining oilada o‘tishi, muloqat va nazoratning bevositaligi, xo‘jalik yuritipshing umumiyligi va boshqa bir qator shu muhitga xos bo‘lgan jihatlar bilan belgilanadi. Shaxsiy oilaviy muhit sharoitida farzand tarbiyasini bevosita boshqarish mumkin. Farzand tarbiyasida boshqa oilaviy muhitlarning ham ta’sirini inobatga olib borish lozim. Bunda nazorat qilish, kuzatib borish, bahslar tushuntirishlar olib borish usullaridan foydalanish lozim. Bog‘cha farzand tarbiyasidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Unda bolaning rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan ovqatlanish, dam olish tartibi joriy qilinganligi, tashqi dunyo haqidagi dastlabki tasavvur va bilimlarning berilishi katta ahamiyatga ega. Oilada bu ko‘nikmalar, bilimlar mustahkamlanib rivojlantirilib borilishi lozim, Bog‘cha sharoiti bilan tanishib farzand haqida, uning yurish-turishi, o‘zini tutishi, o‘ziga xos xususiyatlari haqida tarbiyachilar bilan suhbatlashib, maslahatlashib turish lozim. Ta‘lim muassasasi yosh bo‘g‘inning ta‘lim va tarbiyasida eng muhim o‘rin tutuvchi ulug‘ makondir. Bu

muhitda bola o‘zining insoniylik xislatlariga ega bo‘lib, shakllanib borishi bilan birga aql-zakovat, idrok, egasi bo‘la boradi, hayotda o‘z o‘rnini topa boshlaydi, kelajakda mustaqil hayot sari o‘z yo‘lini qo‘ya boshlaydi. Ota-onaning farzand tarbiyasi borasida bu bosqichdagi vazifa va burchlari o‘z jigargo‘shasining kelajakda barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun uning har bir qadamini kuzatib, tahlil qilib borish, oilada muktabda olgan bilim va hayotiy ko‘nikmalarini to‘ldirib, lozim bo‘lganda izga solib, tuzatib borish, normal bilim olishi, rivojlanishi uchun etarli ma’naviy, iqtisodiy va milliy sharoitlar yaratib berish, sodir bo‘ladigan hayotiy muammoli masalalar yuzasidan atroflicha tushuntirish ishlarini olib borish, shu bilan birga unga o‘z faoliyatini muayyan reja asosida olib borishi, o‘z muammolarini iloji boricha o‘zi hal qilishi, mustaqil ravishda to‘g‘ri va maqbul qarorlar qabul qilish borasida ko‘nikmalar hosil qilib borishi uchun erkinlik berish lozim. Ana shundagina u istiqbolda o‘z aql-idroki, bilimi, hayotiy ko‘nikmalari asosida turmushda surinmay, adashmay jamiyatning va albatta ota-onaning ham to‘laqonli, ilg‘or, suyukli farzandlaridan biri bo‘lib yetishadi, baxtli, o‘z hayotidan mamnun bo‘ladi hurmat-izzat, obro‘-etiborga sazovor bo‘ladi. Mahalla, ko‘cha-ko‘y, yor-do‘stlar, radio-televiedenie Inson kamolotga erishuvining, mukammalligining buyuk allomalarimiz katta ahamiyat bergen uchinchi omili tarbiya jarayoni bo‘lib, u insonning butun hayoti davomida uzlusiz ravishda olib boriladigan maxsus faoliyatlar majmuidir.

Bu faoliyat uning ona qornida hayotining boshlanishidan tortib to umrining oxirigacha davom etadi. Bu yerda shu narsani ta'kidlab o'tish lozimki, aksariyat hollarda tarbiya deganda go'daklar, yoshlardan, bolalar tarbiyasi nazarda tutiladi. Lekin tarbiya tom ma'noda barcha yoshdagi insonlarga taalluqli bo'lgan, barcha insonlarga suv va havodek zarur bo'lgan bilimlar majmuidir. Chunki, har bir insonning hayotda bosgan har bir qadami uning uchun bu hayotda bosilgan birinchi qadamdir. Inson o'zinig shu bosgan har bir qadamida hayotdan o'zi uchun yangi bilim oladi. Oliy zotning mana shu olgan bilimlarining o'ziga, jamiyatga, davlatga xizmati qilishi uchun bu borada olib boriladigan har bir sa'y-harakat muayyan maqsad sari yo'naltarilgan bo'lishi lozim.

Dunyoning barcha taraqqiy etgan davlatlari qatorida mustaqil yurtimiz yoshlaringning ta'lim-tarbiyasi, ularni ma'lum kasbga oid bilim aa ko'nikmalarini ztallahsga yo'llash, bolalar iehnatini tashkil etish muammolari dolzarb masalalardan hisoblanadi. Respublikamizda so'nggi yillarda amalga oshirilayottan iqtisoday, siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy, madaniy sshalardagi islohotlar ta'lim-tarbiya tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishini taqozo etmoqda.

Yosh avlodning ishlab chiqarishda, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida o'zlariga munosib o'rirlarni topishlarida ularga zamonaviy kasb-hunarlarini o'rgatish, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlash ishi insoniyat jamyati paydo bo'lganidan boshlab keksa avlod oldida turgan muqaddas vazifalardan hisoblanib kelgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish mehnat sohasida tub o'zgarishlar yasashni, asta-sekin mehnat bozorini shakllantirishni taqozo etdi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish siyosatida talab bilan taklif o'zaro monandligini ta'minlovchi mehnat bozorining milliy modelini shakllantirish markaziy o'rnlardan birini egalladi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Mehnat bozorisiz, ish kuchini tovarga aylantirmay turib, bozor munosabatlari to'g'risidagi gaplar gap bo'lib qolaveradi".

Jamiyatda uzlusiz ta'lim tizimini joriy etish, ta'lim muassasalari faoliyatlarini sifat jihatidan yanada takomillashtirish hamda ta'lim mazmunini jahon ta'lim standartlari darajasida tashkil etilishini ta'minlash borasidagi imkoniyatlarni yaratibgina qolmay, bilan ta'lim jarayonining faol sub'ekti bo'lgan kichik mutaxassis pedagog-garbiyachi faoliyati mohiyatining yangicha yo'nalish va g'oyaga asoslanishi zarurligini ham ko'rsatib berdi. Demak, yoshlarda zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni hamda mazmuni kishilik jamiyatni talab va ehtiyojlari asosida vujudga kelgan bo'lib, jamiyat taraqqiy etish bilan kengayib, takomillashib boradi.

Bolalar ruhiyatining o'ziga xos hususiyatlaridan biri ko'pincha o'zi sezmag'an holda o'z oldida namuna olsa arziydigan, taqlid qilshga loyiq ijobjiy shaxs bo'lishini hohlaydi. Chunki, atrofimizni o'rab turgan rang-barang olam bilan tanishishda bola kattalarning yordamiga ehtiyoj sezadi. Etarli darajada bilim va tajribaning yo'qligi sababli ular kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qila boshlaydi. SHunday ekan, oila bolalarning kamoloti uchun dastlabki maktab ekan, o'z-o'zidan ayonki, oiladagi katta yoshdagilar birinchi navbatda ota-onalar barcha sohada shu jumladan tadbirdorlik faoliyatida ham bolalar uchun namuna bo'lmoqlari lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'zbek oilalaridagi e'tiborga loyiq yaxshi udumlardan biri shuki, oiladagi kattalar bolalarga yoshligidanoq hunarga, ma'lum bir kasbga o'rgatib boradilar. Bu esa bolalarning kelajakdagi hayot faoliyatlarini ta'minlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

MTT bolalarni kasb-hunarga xususan tadbirdorlik faoliyatiga yo'naltirish masalasi bo'lmish xalq pedagogikasining durdonasi bo'lmish xalq og'zaki ijodida ham keng o'rin berilgan. Misol tariqasida "Ziyod botir" ertagini olib ko'raylik. Unda bayon etilishicha, Ziyod botir kuni bilan o'z otasidan hunar o'rganadi. Oqibatda u hunar bobida otasidan ilgarilab ketadi. Bir kuni o'zi tayyorlagan o'q yoyni otasiga ko'rsatadi. Otasi uni qo'liga olib, sinchiklab ko'rib chiqqach xayratga tushibdi. Chunki o'q yoyning qabzasiga ajoyib baytlar naqsh qilib yozib qo'yilgan ekan. Otasi juda xursand bo'lib "Balli o'g'lim, mening hunarimni a'lo darajada egallading, endi to umringning oxiriga qadar hech kimga xor bo'lmaysan" debdi. Buning boyisi shundaki, Ziyod botir yasagan o'q yoyni ko'rgan har qanday kishi unga ishqiboz bo'lib qoldi va uni albatta sotib olar ekan. Bu esa Ziyod botirning uddaburon, tadbirdor ekanligidan darak beradi.

MTTda bolalarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishda ota-onalar o'z bolalalariga kasb-hunarlarini o'rgatish bilan bir vaqtida tadbirkorning ma'naviy dunyosiga ham e'tiborni qaratmog'i lozim. Bunda har bir tadbirkor avvalo ma'naviy jihatdan etuk, bag'ri keng, boshqalar, xalq manfaatini o'ylashligi, o'z faoliyati davomida ezgulikka doir ishlarni oshirishligini bolalarga uqtirib borishlari zarur. Bu jarayonda ota-onalar bolalarga o'z xududidagi (mahalla, qishloq, tuman, shahar) ma'naviy jihatdan tarbiyalangan tadbirkorlardan misollar keltirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundagina tarbiyaviy ta'sirning kuchi yuzaga keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi" Toshkent "Adolat", 1998 y
2. Munavvarova A.N. "Oila pedagogikasi" T., 1994 y.
3. Jumanazar Beknazar "Ona va bola tayanchi" Ibn Sino T. 2001 y
4. Xolmatova M. "Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi" T. O'zbekiston 2000 y
5. Xasanboyeva O. "Oilada ma'naviy axloqiy tarbiya" Toshkent 1998 y

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ЙО'NALISHIDAGI БОЛАЛАРНИНГ ИДОИY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Barotova Dilnoza O'tkir qizi
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish usullari hamda texnologiyalari ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy qobiliyat, MTT, savol-javob, metodika, amaliy ishlar, faollik, psixologik tayyorgarlik.

Аннотация: в данной статье описаны методы и технологии формирования творческих способностей детей в дошкольном образовании.

Ключевые слова: творческие способности, МТТ, вопрос-ответ, методика, практическая работа, деятельность, психологическая подготовка.

Аннотация: в данной статье описаны методы и технологии формирования творческих способностей детей в дошкольном образовании.

Ключевые слова: творческие способности, МТТ, вопрос-ответ, методика, практическая работа, деятельность, психологическая подготовка.

Yangi O'zbekistonda islohotlar zamonaviy texnologiyaga bo`lgan talabni oshirib, uzlusiz ta`limning barcha bo`g`inlarida moddiy-texnik bazani yaxshilashga e`tibor qaratishda ijodiy yondashishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi tarbiyalanuvchilarilarining ijodiy qobiliyatlarinini rivojlantirish va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi tarbiyalanuvchilarilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, albatta, uning bevosita faoliyatida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi fanning barcha yo'nalishlaridan atroflicha bilimga ega bo'lishi, fanlararo integratsiyani uzviy bog'lagan holda umumlashshtira olish mahorati bo'lishi kerak. Kichik yoshdagи bolalar bilan ishslashda tarbiyachidan katta mas'uliyat, sabr-qanoat, iroda, yuqori darajada psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Manaviy-ma'rifiy tadbirlar tarbiyalanuvchilarini kelajak hayotga tayyorlashdan iboratdir. Tarbiyachi bunda kechalarni tayyorlashda ishtirot etadi. Qolaversa, bular orqali ma'naviy dunyosi boyib, kengayib boradi bu tarbiyalanuvchiga yomon illatlar begona bo'ladi. Har qanday mashg'ulot oldiga vazifalarni qo'yish shart. Ta'limiy-tarbiyaviy ishlar tarbiyachining yillik ish rejasida aniq ko'rsatilgan, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Tarbiyachi ko'proq o'zlashtirishi qiyin